

Farg'ona viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025- yil yanvar-noyabr dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil 1- dekabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 7361 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 151 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 7 210 tani tashkil qildi.


2025- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 35 009,5 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 110,1 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 4 527,5 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 142,7 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 27 706,2 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,2 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 775,9 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 108,5 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (%da)



Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil 1- dekabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 4 351 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 29 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 4 322 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2025- yilning yanvar-noyabr oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 25 656,2 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 13,1 % ga o'sdi.


Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 24 692,8 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,5 % ga to'g'ri keldi Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 96,2 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Marg'ilon shahar (11 m) va Bag'dod (6,1 m), tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2025- yil 1- dekabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 911 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 5 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 906 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-noyabr oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 22 327,4 mlrd so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 114,9 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 85,0 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

Chop etishga masul: Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi	Bo'lim boshlig'i: Tel: +998732419768	Ijrochi: N.Mahmudova Tel: +998732419768	Manzil: Farg'ona sh., Oq'yol ko'chasi, 104-a
---	--	---	--